

YUSUF SARYOMIY IJODIDAGI AYRIM BADIY VOSITALAR LEKSIK TAHLILI

Kamolova Sadoqat Jabbor qizi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti Universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15752212>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikda tasavvufiy-lug'aviy janrning o'rni, uning asl mohiyatiga urg'u berib o'tilgan. Tasavvufiy-ramziy leksemalarni tahlil qilish uchun XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan Yusuf Saryomiy ijodiga e'tibor qaratilgan. Tasavvufiy-ramziy leksemlarni tahlil qilish jarayonida Yusuf Saryomiy g'azallaridan, baytlaridan misollar keltirish orqali tahliliy fikrlar yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: milliy uyg'onish adabiyoti, tasavvufiy-lug'aviy qatlam, Yusuf Saryomiy she'riyati, tasavvufiy g'oyalar, ramziy leksemalar, jom, mayparast, timsollar tahlili.

ANNOTATION. In this article, the author touched on the place of the tasavvufi - vocabulary layer in linguistics, its original essence. For the analysis of tasavvufisymbolic lexemes, Yusuf Saryomiy, a representative of the national renaissance, created at the end of the 19th century at the beginning of the 20th century, chose and tried to analyze their work. In the process of analyzing tasavvufi - symbolic lexemes, Yusuf Saryomius explained by giving examples from his ghazals, bytes.

KEYWORDS: national renaissance literature, tasavvufi-vocabulary layer, poetry of Yusuf Saryomiy, tasavvufi ideas, symbolic lexemes, jom, maimatian, embodiment analysis.

Tasavvuf – islom dinida insonning ruhiy olamini poklovchi, komillikka yetaklovchi yo'l. Barcha ilmlar qatorida tasavvuf ham o'ziga xos, o'zgacha bir ilmdir. Uning ham adabiyoti, mutasavvif shoir-u olimlari, shu bilan birgalikda, ramziylik ifodalovchi tili mavjud. Ya'ni tasavvuf o'z atamallari, o'z terminlari, umuman olib qaraganda, o'z leksik qatlamiga ega bo'lgan ilm sanaladi. Nafaqat adabiyotga, balki o'z leksik qatlami bilan tilshunoislikka ham bog'liq. Hozirgi kunda tasavvufiy lug'aviy qatlamni o'rganish, boshqa insonlarga ham undagi Haqiqat, Ma'rifat g'oyalarini yetkazish bo'yicha izlanish va tadqiqotlar kundan-kunga ortmoqda. Tasavvufiy lug'aviy qatlamni boyitadigan eng muhim manba ramziy, timsol darajasiga ko'tarilgan leksemalardir. Shuningdek, ramziy birliklarni mutasavvif shoirlarning she'r-u g'azallaridan bilishimiz mumkin.

Milliy uyg'onish davrida ham diniy-tasavvufiy she'rlari bilan xalq orasida shuhrat topayotgan ijodkorlar mavjud edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilohiy ishq, tasavvufiy g'oyalar haqida qo'rqmasdan yoza olgan, shu bilan birgalikda, diniymistik shopir sifatida sobiq hukumat tomonidan qoralangan mutasavvif shoirlardan biri Yusuf Saryomiydir. "...Mavlaviy Yusuf Saryomiy islom diniga samimiy e'tiqod qo'ygan, tasavvuf maslagiga mehr-muhabbat bog'lagan komil musulmon shoiridirki, uning she'riyatidan islom va tasavvuf dunyoqarashining hayotbaxsh va donishmand zakovati ufurib turadi".[1] Uning ijodida turli mavzudagi she'rlarni ham uchratish mumkin. "Yusuf", "Yusufiy" taxallusi bilan she'rlar yozib, zamonasida katta shuhrat qozongan bu shoirning she'riyati tasavvuf doirasida qolgan emas. Unda "ishqi majoziy" yo'nalishidagi she'rlar, muayyan tarixiy shaxslar, voqealarga bag'ishlovlar, hatto hajviyalar ham bor". [2] Yusuf Saryomiy ijod qilgan davr adabiy tili (XIX–

XX) bilan, Alisher Navoiy (XV), Adib Sobir Termiziy (XI–XII) lar ijod qilgan davr adabiy tili, albatta, leksik, morfologik, fonetik, grammatik jihatdan ham, farqlangan. Yozilish tili, uslubi ham bir-biridan farq qilishi tabiiy. Tasavvuf g'oyalarini anglash, o'rganish uchun esa ularni tahlil qilishimiz, asl ma'nosini ochiqlashga harakat qilish lozim. Bu tilshunoslikda, xususan, leksikografiya sohasida ham katta bir yutuq bo'ladi. Gardishi bu jomdur hayyu huviyat halqasi, Mayparastdin davrig'a yo'q ibtidou intiho.[3] Bu misrada ramziy ma'no tashuvchi so'zlar jom va mayparast so'zlaridir. Bularni tahlil qilish jarayonida u so'zlarning asl ma'nosiga bog'liqligi bor yoki yo'qligini aniqlab olish kerak. Jom– tasavvuf adabiyotida eng ko'p ishlatiladigan ramziy leksema. Uning asl lug'aviy ma'nosi "sharob ichiladigan idish, qadah". Tasavvufiy-ramziy so'z sifatida Orifning ma'rifat bodasiga to'la ko'ngli va ahvoli timsolidir. Ma'rifat sarxushligiga g'arq bo'lgan komil inson nazarda tutilyapti. Ba'zi o'rinlarda uni modiiy dunyo ramzi sifatida ham qo'llashgan. Mayparast – tasavvuf adabiyotidagi bu istilohni ilohiy ishq mayidan mast bo'lgan, mayxonada, ya'ni Piri Murshid ostonasida haqiqatni topish yo'llarini qidirgan, Alloh vasliga yetmoq uchun yo'lga chiqqan solik timsolidir. Baytning umumiy mazmuni quyidagicha: "Orif insonning ma'rifatga to'lgan ko'ngli asl mohiyat, haqiqat (huviyat) halqasidir, Alloh oshiqlarining boshlanish va tugash davri yo'q, ular har doim Yaratganga oshiqdir".

Bas, bu foniyl kulfatobodini asbobig'a band Bo'lmag'il, chun ankabuti(o'rgimchak) ro'zg'or(davr) dar pechutob (siqilish) Yusuf Saryomiy ijodida boshqa shoirlarda deyarli uchramaydigan, yangi tasavvufiy-ramiy leksemalar ham qo'llangan. Bu so'zning yangi ma'no qirralarini ochib berishga ham yordam beradi. Shuningdek, baytning, yoxud g'azalning qiymatini ham oshiradi. Yuqoridagi misrada keltirilgan kulfatobod va ankabut so'zliklarini misol tariqasida keltirish mumkin. Kulfatobod – so'zning o'zagidan ham ma'no anglashilib turibdi, ya'ni balo-yu kulfatlarga to'la joy. Foniyl dunyo ramzi. Ankabut – lug'aviy ma'nosi o'rgimchak, o'rgimchak to'ri. Bu so'z o'tkinchi dunyoda insonlarni asl maqsadidan adashtiruvchi, behudaga vaqt sarflashini taminlovchi tashvishlari-yu foniyl dunyodagi asboblal ramzidir. Xulosa qilib aytganda, milliy uyg'onish adabiyoti vakili Yusuf Saryomiyning so'z san'atkorligi nihoyatda go'zal. Shoirning axloq, odob, tabiat, ilm- ma'rifat, o'tkir hajviyot kabi mavzularga bag'ishlangan she'rlaridagi ma'noni anglab olish nisbatan oson. Ammo uning she'riyatida yetakchilik qiladigan din va tasavvufni anglash mushkul. Tasavvufiy go'yalar aks etgan she'rlari zamiridagi orifona ma'noni anglashga ozgina tahayyul va tafakkur qilish, tasavvufiy bilimlarga qisman bo'lsa-da ega bo'lish talab etiladi. Yusuf Saryomiy ijodida tasavvuf g'oyalarini, asosan, ochiqdan-ochiq bayon qilish ko'zga tashlanadi, ya'ni ramzlar orqali tushunilishi qiyin bo'lgan mohiyat va g'oyalarni o'z holicha ifoda etishni ma'qul ko'radigan mutasavvif shoirdir Yusuf Saryomiy. Shubhasiz, tasavvuf g'oyalarini anglash uchun tasavvuf ilmi, din ilmi talab etiladi. M. Tojiboyeva, B. Qosimov kabi bir qator olimlar shoirning ijodi bo'yicha tahsinga loyiq ilmiy ishlarni amalga oshirishgan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboyeva M. Yusuf Saryomiy hayoti va ijodi. –Toshkent: 2004.

2. Qosimov B, Yusupov SH, Dolimov U, Rizayev SH, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. –Toshkent: Ma'naviyat, 2004. 3. Yusuf Saryomiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi: 10-jild (Sharq — Qizilqum). Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 — 656-bet.
4. Zufarov S. Saryomiy izidan. „Toshkent oqshomi“, 1988-yil 18 iyun.
5. Qosimov B. Muhabbat ahlining gulshani. „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“, 1990-yil 5 oktabr.